



TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Madiyorova Shirmonoy Yursunovna¹

¹ Farg'ona viloyati Farg'ona shahri

14 - umumiy o'rta ta'lim maktabi

tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5812844>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 15-Dekabr 2021

Chop etildi: 20-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*metodik, ma'naviy,
axloqiy, innovatsion,
shakllanish*

- Ta'lim sohasida davlat siyosati va strategiyasining asosiy yo'nalishlarini;

-Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari tushunchasining ilmiy asoslarini, uning kategoriya va tamoyillarini; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni;

-O'quvchi shaxsi, ta'lim jarayonida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishini; Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarilarning tasnifi va asosiy jihatlarini;

- Ta'lim jarayonini texnologizatsiyalash haqida tasavvurga ega bo'lishi; zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni bilishi kerak;

ANNOTATSIYA

"Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari " o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr.

- shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini faol shakllanishi, tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarilarning tamoyillari bilan bog'liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;

Ta'limga texnologik yondashuv asosida mashg'ulotlarning o'quv maqsadini qo'ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish;

-amaliy mashg'ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;

-Ta'lim oluvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi, ta'lim jarayonining "jonli", ijodiy tashkil etishga yordam



beruvchi ta'limning zamonaviy integrativ metodlarini egallash;

- Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;

-Ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim olganlikni tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo'llarini mustaqil yaratish va nazorat qilish ko'nikmalarini egallashi zarur;

- Tarixiy adabiyotlar bilan ishlay olish;

- Zarur metodik hujjatlarni tuza olish;

-Ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanish bilan o'z-o'ziga ta'lim berish bilan shug'ullanish;

-Yengil pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, ishga ijodiy yondashish;

-Muloqotda ochiq va hamdard bo'lish;

-Ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

-Individual, shaxsiy va yoshga oid o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan psixologik asosli muloqot va o'zaro harakatni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi. "Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fani ijtimoiy fanlar ayniqsa pedagogika fani bilan uzviy bo'g'liq. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa (etika, estetika, mantiq)), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'рни. Ta'lim jarayonini texnologiyalash – pedagogik jarayon samaradorligining muhim sharti. Ana shuning uchun ham bo'lajak pedagoglar tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarining ilmiy asoslari, ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalarini egallashlari zarur. O'quvchilar tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirishida mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

"Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" fanini o'rganish davomida mashg'ulotlarda ta'limning axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, interfaol metodlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, "Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" faniga tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, ta'limning ko'rgazmali va texnik vositalaridan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari" 2005



2. "ijtimoiy fanlar" 2009
3. "(pedagogika nazariya" 2016